XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 11 - yanvar VI-49-1-1-19-K/23 Bo‘ston tumani hokimligi

Bo‘ston tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmonining 1-bandiga muvofiq Bo‘ston tumani moliya bo‘limi va tuman davlat soliq inspeksiyasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, xalq deputatlari Bo‘ston tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 9-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llash to‘g‘risida”gi 06/04-34/4103-sonli xatida quyidagilar:

yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2023-yilda 1,07 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

Bo‘ston tumani uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 gektar uchun 39,0 (o‘ttiz to`qqiz) mln.so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv metr uchun 352 (uch yuz ellik ikki) so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy budjet daromadlari prognozidan

kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” miqdorlarini belgilash bo‘yicha tuman moliya bo‘limi hamda tuman Davlat soliq inspeksiyasining takliflari ma’qullansin.

3. Bo‘ston tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorlari yuridik shaxslar uchun 1-ilovaga hamda jismoniy shaxslar uchun 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2022-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

tuman xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan 2022-yilning 25-dekabr kuniga qadar 1 hafta muddatda ushbu qarorning 1-2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha o'tkazilgan muhokamalar yakuni bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarni joylardagi soliq o‘rganlariga taqdim etish tavsiya etilsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashiga ushbu qarorning 1-2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kelgusi yil uchun mahalliy budjet daromadlari prognozidan hamda tumanimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo‘llashlari tavsiya etilsin.

5. Bo‘ston tumani Davlat soliq inspeksiyasi (D.Axmadaliyev) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 15-yanvarga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Ochildinova), “Bo‘ston” gazetasi taxririyati (O.Sulaymonov)ga mazkur qarorni matbuotda e’lon qilinishi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror bilan belgilangan soliq stavkalari qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman Davlat soliq inspeksiyasi D.Axmadaliyevga va nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi R.Sulaymonova zimmalariga yuklatilsin.

Сессия раиси **S.A.NOSIROVA**

Xalq deputatlari Bo‘ston tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-49-1-1-19-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yil uchun Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	1 gektar uchun soliq stavkasi (ming so‘m)
1	Obod MFY (eski Chorvador MFY)	0,95	26 676,0
2	G‘olib MFY	0,85	23 868,0
3	Mustaqillik 15 yilligi MFY	0,90	25 272,0
4	Ko‘xinur MFY	0,90	25 272,0
5	Yangi qishloq MFY	0,90	25 272,0
6	Yangi obod MFY	0,90	25 272,0
7	Ma’orif MFY	0,95	26 676,0
8	Guzar MFY	0,95	26 676,0
9	Madaniyat MFY	0,95	26 676,0
10	Do‘stlik MFY	0,95	26 676,0
11	Sarbon MFY	0,75	21 060,0
12	Yakka tol MFY	0,80	22 464,0
13	Pillakor MFY	0,95	26 676,0
14	Bo‘ston MFY	0,80	22 464,0
15	Davlatobod (eski Tafakkur MFY)	0,80	22 464,0
16	Sariq jo‘ga MFY	0,85	23 868,0
17	Navro‘z MFY	0,80	22 464,0
18	Gulshan MFY	0,80	22 464,0
19	Bog‘i eram MFY	0,80	22 464,0
20	Dehqonobod MFY	0,85	23 868,0
21	Nurafshon MFY	0,85	23 868,0
22	Mehnatobod MFY	0,85	23 868,0
23	Xovos MFY (eski Chashma MFY)	0,85	23 868,0
24	Guliston MFY	0,85	23 868,0
25	Xalqobod MFY	0,85	23 868,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsyentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Bo‘ston tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-49-1-1-19-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	1 кv.m uchun soliq stavkasi (so‘m)
1	Obod MFY (eski Chorvador MFY)	0,95	240,73
2	G‘olib MFY	0,85	215,39
3	Mustaqillik 15 yilligi MFY	0,90	228,06
4	Ko‘xinur MFY	0,90	228,06
5	Yangi qishloq MFY	0,90	228,06
6	Yangi obod MFY	0,90	228,06
7	Ma’orif MFY	0,95	240,73
8	Guzar MFY	0,95	240,73
9	Madaniyat MFY	0,95	240,73
10	Do‘stlik MFY	0,95	240,73
11	Sarbon MFY	0,75	190,05
12	Yakka tol MFY	0,80	202,72
13	Pillakor MFY	0,95	240,73
14	Bo‘ston MFY	0,80	202,72
15	Davlatobod (eski Tafakkur MFY)	0,80	202,72
16	Sariq jo‘ga MFY	0,85	215,39
17	Navro‘z MFY	0,80	202,72
18	Gulshan MFY	0,80	202,72
19	Bog‘i eram MFY	0,80	202,72
20	Dehqonobod MFY	0,85	215,39
21	Nurafshon MFY	0,85	215,39
22	Mehnatobod MFY	0,85	215,39
23	Xovos MFY (eski Chashma MFY)	0,85	215,39
24	Guliston MFY	0,85	215,39
25	Xalqobod MFY	0,85	215,39

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsyentlarni belgilash huquqiga ega.